

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI



“Tasdiqlayman”

Farg'ona davlat texnika universiteti
rektori U.R. Salomov

2025 y.

60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun
IXTISOSLIK FANLARIDAN O'TKAZILADIGAN
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVI BO'YICHA
BAHOLASH MEZONI

Farg'ona – 2025 y.

ANNOTATSIYA

Dastur – 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishining tasdiqlangan o'quv rejasidagi ixtisoslik fanlari asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:



Ismanov I. N. - "Iqtisodiyot" kafedrası
professori



Davlyatova G.M. - "Iqtisodiyot" kafedrası
dotsenti



To'ychieva O.N. - "Iqtisodiyot" kafedrası
dotsenti



Raxmonnazarov P.Y. - "Iqtisodiyot" kafedrası
dotsenti

Ushbu dastur "Ishlab chiqarishda boshqaruv" fakultetining 2025-yil 27 dekabrdağı 3 – sonli Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bugungi mehnat bozoriga kadrlarni taqdim etish borasidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda oliy ta'lim sohasi oldida turgan eng muhim masalalardan biri – bu, ta'lim sifati va baholash tizimini takomillashtirish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. SHuningdek, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, aholining turmush farovonligini oshirish zaruriyati insonlardan yangicha iqtisodiy fikrlashni talab qiladi. Bu esa ularda iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish zaruriyatini keltirib chiqarali. Xususan, 2019 yil 8 oktyabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli farmoniga asosan ilm-fanni yangi bosqichga ko'tarish ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi malakali kadrlarni tayyorlashga yangi talablarni qo'yadi. Ayniqsa, mamlakatimizda iqtisodiy sohada yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni qondirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, O'zbekistonni yuqori darajadagi industrlashgan mamlakatga aylantirish masalasining ilgari surilishi oliy ta'limda tayyorlanayotgan kadrlarning bilimi va ko'nikmalariga yuqori darajadagi talablarni qo'yadi. Tayyorlanayotgan kadrlar mamlakat iqtisodiyotida turgan dolzarb muammo va masalalarni hal qila olish hamda asoslangan qarorlarni qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarurdir. Zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish qoidalarini va shakllarini hamda usullarini mukammal o'zlashtirgan, har qanday iqtisodiy jarayonlarga to'g'ri baho beradigan, iqtisodiyot oldida turgan muammolar yechimini hal qila oladigan, mutaxassisgina mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda “Iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishining Malaka talablarida belgilangan zaruriy iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun “*Biznesni loyihalash*”, “*Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish*” va “*Global iqtisodiy rivojlanish*” fanlari ixtisoslik fanlari sifatida **60310100**–“Iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishining o'quv rejasiga kiritilgan. Shuning uchun Farg'ona davlat texnika universitetida **60310100** – “Iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishi bo'yicha Davlat attestatsiya sinovini o'tkazish maqsadida yuqorida qayd etilgan fanlar tanlangan va ular bo'yicha topshiriqlar shakllantirilgan.

Biznesni loyihalash

“Biznesni loyihalash” fanining asosiy maqsadi bo'lib talabalarda ishlab chiqarish faoliyatida foydalaniladigan iqtisodiy resurslarni son va sifat ko'rsatkichlarida rejalashtirish, biznes loyihani biznes yuritish strategiyasi va taktikasini belgilovchi hujjat sifatida ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo'yicha bilimlar majmuini shakllantirish hisoblanadi.

Fanni o'rganishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: biznes-rejalashtirish, rejalashtirish texnologiyasining zamonaviy uslublari va amaliyotini o'rganish; biznes rejaning tuzilmasi va mazmunini belgilash; biznes reja bo'limlarining rejalashtirish uslublarini o'rganish; biznes – rejani ilgari surish mexanizmini o'rganish; biznes rejaning samaradorligini baholash uslubiyatni o'rganish.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

- biznes reja tuzilmasini shakllantirish; korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish; korxonalardagi mavjud imkoniyat va muammolarni baholay olish; korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha yangi usullar hamda yo'nalishlar haqidagi bilim va tasavvurga ega bo'lishi ;

- korxonada ishlab chiqarishni tashkil qilish ko'rsatkichlari darajasini ishlab chiqish, tadqiqot va baholash bilan bog'liq masalalarni hal etish; rejalashtirishni mukammallashtirish bo'yicha vaziyatla masalalarni yechish; korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish muammolarini bartaraf etish; umumboshqarish masalalarini qo'yish va hal etish ko'nikmalariga ega bo'lishi ;

- O'zbekiston Respublikasining qonun va qoidolari yo'nalishlari hamda ularni korxonalarning ishlab chiqarish – moliya faoliyatida qo'llash; korxonalarning xo'jalik faoliyatini takomillashtirish sohasida davlatning zamonaviy, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini korxonalar miqyosida amalga oshirish; biznes rejani tuzish usullarini va rejalashtirish texnologiyasini qo'llash; biznes rejani ishlab chiqish; bozor imkoniyatlarini baholash; bozorda mahsulotning siljish strategiyasining tanlash; ishlab chiqarish rejasini tayyorlash; korxonaning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish; biznes rejani amalga oshirish uchun zaruriy investitsiyalar samaradorligini baholash malakasi va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish

Mazkur fanning vazifalari makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo'lish shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy konsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat natijalarini prognoz qilish usullarini o'rgatishdan iborat.

“Makroiqtisodiy tahlil” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- makroiqtisodiy tahlil fanining predmetini, asosiy kategoriyalarini va tadqiqot usullarini; makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyatini va ularni hisoblash shartlarini; asosiy makroiqtisodiy modellarni va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks ettirishni; tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmining mohiyatini; pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta'sir etuvchi omillarni; byudjet-soliq va pul – kredit siyosatining maqsadlarini, vositalarini, ko'rinishlarini; iqtisodiy o'sishning mohiyatini, o'lchanishini, omillarini va modellarni, tashqi sado siyosatining nazariy asoslarini va vositalarini; mamlakat to'lov balansining tuzilishini, makroiqtisodiy ahamiyatini va uni tartibga solish usullarini; valyuta kursining mohiyatini, makroiqtisodiy ahamiyatini, uni belgilovchi omillarni va barqarorligini ta'minlash shartlarini, ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish xususiyatlarini **bilishi kerak**;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash; asosiy makroiqtisodiy modellarning o'zgaruvchilarini aniqlash va tenglamalarini tuzish; tovarlarlar va xizmatlar bozorida qisqa va uzoq muddatli muvozanatni ta'minlash mexanizmini tushuntirib berish; pul bozorida muvozanat yuzaga kelishining o'ziga xos xususiyatlarini; makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatishi qonuniyatlarini aniqlash; turli makroiqtisodiy vaziyatlarda byudjet-soliq yoki pul-kredit siyosatini qo'llash hamda

o‘zaro muvofiqlashtirish shartlarini tushuntirib berish; tashqi savdo siyosati va valyuta kursini tartibga solish orqali to‘lov balansi holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta’sir ko‘rsatish usullarini tavsiflab berish; ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;**

- iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda makroiqtisodiy modellarni qo‘llash; makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish; makroiqtisodiy siyosatning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berish; makroiqtisodiy siyosatning natijalarini prognoz qilish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

Global iqtisodiy rivojlanish

“Global iqtisodiy rivojlanish” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarga global iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha bilimlarning nazariy asoslarini, global iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, global darajada amal qiluvchi iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Ushbu kursning vazifasi jahon iqtisodiyotini globallasuvi kontseptsiyalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va yo‘nalishlari, jahon iqtisodiyotni globallasuvining harakatlantiruvchi kuchlari, belgilari va shakllari, jahon iqtisodiyotini globallasuv omillari va rivojlanish bosqichlari, jahon iqtisodiyotini globallasuv muammolari va ularning guruhlanishi, jahon iqtisodiyotini globallasuvi muammolarining oqibatlari va hal etish yo‘llari, globallasuv va xalqaro savdoning rivojlanish tendentsiyalari, global, mintaqaviy va milliy moliyaviy bozorlar, globallasuv sharoitida ishchi kuchi bozori va migratsiyasi muammolari, globallasuv sharoitida transmilliy korporatsiyalar, jahon iqtisodiyotini globallasuvi sharoitida iqtisodiy havfsizlik va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlash muammolari kabi masalalarni qamraydi.

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

Jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, globallasuv nazariyalari bo‘yicha fundamental bilimlarga ega bo‘lishlari

- Global iqtisodiy hodisalarni tanqidiy tahlil qilish, turli yondashuvlarni solishtirish va o‘z xulosalarini asoslash qobiliyatiga ega bo‘lish.
- Jahon iqtisodiyoti statistik ma’lumotlari, reytinglar va xalqaro tashkilotlar hisobotlaridan foydalanish, ularni tahlil qilish va ilmiy izlanishlar uchun ishlatish ko‘nikmalarini egallash.
- Global iqtisodiyotning muayyan muammolari bo‘yicha mustaqil izlanishlar olib borish, tadqiqotlar o‘tkazish va natijalarni taqdim etish qobiliyatiga ega bo‘lish.

60310100 - “IQTISODIYOT” TA’LIM YO‘NALISHI UCHUN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVI TARKIBIGA KIRITILGAN IXTISOSLIK FANLARIDAN TOPSHIRIQLARNI BAHOLASH TARTIBI

Yakuniy Davlat attestatsiya sinovida talabalarning bilim darajasini baholash uchun ixtisoslik fanlaridan sinov o‘tkaziladi. Sinov yozma shaklida amalga oshiriladi. Bunda **baholash mezonini asosi qilib 0 ball dan 100 ball belgilanadi.** Tanlangan fanlar bo‘yicha ballar taqsimoti quyidagicha: “Biznesni loyihalash” fanidan 40 ball, “Makroiqtisodiy tahlil va prognozashtirish” fanidan 40 ball, “Investitsion loyihalar tahlili” fanidan 20 ball beriladi.

“Biznesni loyihalash” fani bo‘yicha vaziyat tahliliga asoslangan topshiriq shakllantiriladi. Bu

topshiriqni bajarish bilan talabalar ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, amalga oshiriladigan tashkiliy-texnik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamla ularni korxonaning yakuniy natijalari bilan bog'lash bo'yicha o'zlashtirgan bilim va amaliy ko'nikmalarini namoyon etadilar. Har bir talabaga individual topshiriq shakllantiriladi.

“Biznesni loyihalash” fani bo'yicha bajarilgan topshiriqni baholash mezonlari

Ball kattaligi, 40 ballga nisbatan foiz hisobidan	Topshiriqni bajarishga qo'yiladigan talablar
36-40 ball, a'lo	Topshiriqni to'liq bajargan, iqtisodiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga mantiqiy yondashgan, tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyotiga rioya etgan, formula va har bir holatni mustaqil fikrlar bilan izohlagan, amaliy ahamiyatga ega, mazkur topshiriq bilan bog'langan xulosa va takliflarni bayon etish qobiliyatini ko'rsatgan talabaga, belgilangan maksimal balning 36-40 bali qo'yiladi.
28-35 balgacha, yaxshi	Topshiriqni to'liq bajargan, iqtisodiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga mantiqiy yondashgan, tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyotiga qisman rioya etgan, formula va har bir holatni mustaqil fikrlar bilan izohlamagan, xulosa va takliflarni bayon etishga umumiy yondashgan, ya'ni mazkur topshiriq holati bilan bog'lanmagan xulosalarni bayon etgan talabaga, belgilangan maksimal balning 28-35 bali qo'yiladi.
24-27 balgacha, qoniqarli	Topshiriqni to'liq bajargan, iqtisodiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga mantiqiy yondashmagan, tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyotiga qisman rioya etgan, formulalarni keltirmagan, har bir holatni mustaqil fikrlar bilan izohlamagan, xulosa va takliflarni qisman bayon etgan talabaga, belgilangan maksimal balning 24-27 bali qo'yiladi.
24 balgacha, qoniqarsiz	Topshiriqni to'liq bajarmagan, iqtisodiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga mantiqiy yondashmagan, tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyotiga rioya etmagan, formula va har bir holatni mustaqil fikrlar bilan izohlamagan, xulosa va takliflarni bayon etish qobiliyatini ko'rsata olmagan talabaga, belgilangan maksimal balning 24 baligacha qo'yiladi.

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozashtirish” fani bo'yicha talabalarga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va ular asosida mamlakat iqtisodiyotining yoki ma'lum hududning kelgusi rivojlanish yo'nalishlarini prognoz qilish bo'yicha masala qo'yiladi. Bu jarayon asosida talabalar makroiqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilgan xolda prognoz modellarini ishlab chiqish bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini ifoda etadilar. Har bir talaba uchun individual masala – topshiriq shakllantiriladi.

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” fani bo‘yicha bajarilgan topshiriqni baholash mezonlari

Ball kattaligi, 40 ballga nisbatan foiz hisobidan	Topshiriqni bajarishga qo‘yiladigan talablar
36-40 ball, a’lo	Berilgan masala mohiyatini to‘liq tushunib yetadi, yechish ketma-ketligini ifodalab bera oladi, yechish jarayonida izohlarni beradi, masalani yechadi, yechish jarayoni bo‘yicha mustaqil fikr va xulosalarni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etgan talabaga belgilangan maksimal balning 36-40 bali qo‘yiladi.
28-35 balgacha, yaxshi	Berilgan masala mohiyatini to‘liq tushunib yetadi, yechish ketma-ketligini ifodalab bera oladi, yechish jarayonida izohlar to‘liq berilmagan, yechim bo‘yicha xulosa va takliflarni bayon etishga umumiy yondashgan talabaga belgilangan maksimal balning 28-35 bali qo‘yiladi.
24-27 balgacha, qoniqarli	Berilgan masala mohiyatini to‘liq tushunib yetadi, masala yechimi oxiriga yetkazilmagan, (yetkazilgan lekin izoh berilmagan), xulosa va takliflarni qisman bayon etgan talabaga, belgilangan maksimal balning 24-27 bali qo‘yiladi.
24 balgacha, qoniqarsiz	Berilgan masala to‘liq yechilmagan, formula va har bir holatni mustaqil fikrlar bilan izohlamagan, xulosa va takliflarni bayon etish qobiliyatini ko‘rsata olmagan talabaga, belgilangan maksimal balning 24 baligacha qo‘yiladi.

“Global iqtisodiy rivojlanish”fani bo‘yicha baholash mezonlari

Ushbu fan bo‘yicha 30 ta test savollari beriladi va ularga maksimal 20 ball qo‘yiladi. Sinov test shaklida amalga oshiriladi. Bunda baholash mezoni asosi qilib 0 balldan 20 ball belgilanadi Tanlangan fan bo‘yicha test savollari hajmi har bir talaba uchun 30 ta test savolini o‘z ichiga oladi, har bir to‘g‘ri javob uchun talabaga o‘rtacha 0,6 ball beriladi.

20 balldan	Berilgan test javoblariga qo‘yiladigan talablar
Yechilgan testlar uchun ball kattaligi, foizda	
90-100 %	- 18 baldan 20 balgacha, a’lo (testlarni 27-30 ta topishi kerak)
71-89 %	- 15 baldan 17 balgacha, yaxshi (testlarni 21-26 ta topishi kerak)
60-70 %	- 12 baldan 16 balgacha, qoniqarli (testlarni 18-25 ta topishi kerak)
0-59 %	- 11 ball va undan kam ball, qoniqarsiz (17 ta va undan past topilsa)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismanov I, Davlyatova G, Buzrukxonov S Biznesni rejalashtirish – F.: Farg‘ona nashriyoti, 2020-460 b.
2. Maxmudov E.X., Isoqov M. Yu. Biznes – rejalashtirish. O‘quv qo‘llanma, Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 - 141 -bet
3. Sergeev A.A., Biznes-planirovanie. Uchebnik i praktikum —M: Yurayt, 2022 — 456 s
4. Abdullaev A, Aybeshov A. Biznes reja. O‘quv qo‘llanma, “Moliya”, 2002 - 72 bet.
5. Adxamov M Biznes rejani qanday tuzish kerak. . O‘quv qo‘llanma, “Omad-KOL”, 1998 - 46 bet
6. Maxmudov N., Hakimov N. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma – T.: TDIU, 2019, - 181 bet/
7. N.X.Bekmurodov, J.Sh.Tuxtabaev, Sh.E.Yuldashev, A.A.Usmanov, Sh.Ch.Yarmatov, U.U.Nurullayev, H.O‘.Hasanov. Makroiqtisodiyot. Darslik. Toshkent. TDIUSF, 2022. - 350 b
8. С. К. Демченко, О. С. Демченко - Макроэкономика_ продвинутый уровень _ учебное пособие-СФУ (2019)
9. George Alogoskoufis - Dynamic Macroeconomics (The MIT Press)-MIT Press (2019) (1).
a. (The MIT Press Essential Knowledge series) Felipe Larraín B. - Macroeconomics-The MIT Press (2020)
10. Maxmudov N.M., Asqarova M.T., Umarov I.Yu. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. Darslik. T.: “Fan va texnologiyalar”, 2014 – 338 b.
11. Yakubov I.O., Hakimov H.A. Makroiqtisodiyot-2. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2019. - 217 bet.
12. M.S.Qosimov. Investitsiya loyihalar tahlili. Darslik. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaauyi», 2021, – 192 b.
13. Н.Ғ. Каримов, Ф.А. Хамидова, М.Р. Ниязметов, А.Ғ. Шаймарданов Инвестиция. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2024. – 534 б.
14. Борисова О.Б., Малых Н.И., Овешникова Л.В., в 2 томах. т.1.Инвестиционный анализ: учебник и практикум для вузов.- Москва.: Издательство Юрайт, 2022.-218 с. ISBN 978-534-01718-2 (т.1).
15. Турсунов К.Б., Ражабов Н.Р., Инвестицион муҳит жозибадорлигини бошқаришни такомиллаштириш. Монография. -Т.:«Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021, 212 бет. ISBN: 978-9943-7528-7-0.
16. Юзвович Л.И. и др. Инвестиции и инвестиционная деятельность: учебник /под общ. ред. Л. И. Юзвович/, Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский государственный экономический университет. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2021. – 498 с. ISBN 978-5-7996-3082-9.
17. Храмцова Н.А. Инновационная экономика. Учебное пособие. - Омск: СибАДИ. 2019.- 75 стр.
18. Сабирова Л.Ш., Хужамкулов Д.Ю. Инвестиция. Учебное пособие. – Т.: Экономика и финансы, 2019. – 254 с.